

PIRIMQUL QODIROVNING "AVLODLAR DOVONI" ROMANIDA  
UNDALMALARNING QO'LLANILISHI

**Yo'lchiyeva Odina Alisher qizi**

*Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi o'quvchisi*

**Xaitov Xusniddin Xasanovich**

*Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola O'zbekiston xalq yozuvchisi Pirimqul Qodirovning "Avlodlar dovoni" romanidagi undalmalarning qo'llanilishi tahlil qilingan. Undalmalarning qo'llanilishi asosida asardagi ohang va ta'sirchanlik kuchaytirilgan hamda yozuvchining so'z mahorati ta'kidlab o'tilgan. Har bir gapdagi undalmalarning ma'no turlariga to'xtab o'tilgan

**Kalit so'zlar:** roman, asar, undalma, tahlil, satr, obraz, voqea, ta'sirchanlik, lirik qahramon.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ В РОМАНЕ "ПЕРЕХОД ПОКОЛЕНИЙ"  
ПИРИМКУЛА КАДЫРОВА

**Аннотация:** В данной статье анализируется использование мотивов в романе «Авлодлар довони» народного писателя Узбекистана Пиримкула Кадырова. На основе использования наречий усиливается тон и выразительность произведения, выделяется словесное мастерство писателя. Обсуждаются типы значения импульсов в каждом предложении.

**Ключевые слова:** роман, произведение, порыв, анализ, линия, образ, событие, впечатление, лирический герой.

THE USE OF ADJECTIVES IN THE NOVEL "THE TRANSITION OF GENERATIONS" BY  
PIRIMKUL KADYROV

**Annotation:** This article analyzes the use of motifs in the novel "Avlodlar Dovani" by People's Writer of Uzbekistan Pirimkul Kadyrov. Based on the use of adverbs, the tone and expressiveness of the work is enhanced, the verbal skill of the writer stands out. The types of impulse meanings in each sentence are discussed.

**Key words:** novel, work, impulse, analysis, line, image, event, impression, lyrical hero.

Unda Imalarning qo'llanilishini har bir asarda uchratishimiz mumkin. Ayniqsa, taniqli yozuvchi Pirimqul Qodirovning eng mashhur asarlaridan biri "Avlodlar dovoni" romanida keng qo'llanilganligini ko'rishimiz mumkin. Undalmalarni o'z o'rnida qo'llash ham yozuvchining so'z mahoratini ochib beradi hamda asarda aniqlik va ta'sirchanlikni kuchaytiradi. "Undalma bo'lak tinglovchining diqqatini gapshakl bilan aytilayotgan fikrga jalb qilish uchun xizmat qiladi, bosh kelishikdagi sintaktik birlik bilan ifodalanadi, undash ohangi bilan aytiladi." [2, 354]

Asarda keltirilgan undalmalarning izohini quyidagi misollar orqali ko'rish mumkin:

-Ayting, hazrat begim, jon qulog'im bilan eshitgaymen! [1, 16]

Bu yerda undalma hazrat begim bo'lib, Xonzodabegim, ya'ni Zahiriddin Muhammad Boburning opasiga hindistonlik mohir ot choptiruvchi qiz Hamidabonu murojaat qilmoqda. Hamidabonu Xonzodabegimdan bir bayt g'azal eshitish uchun javob qaytarmoqda. Bu yerdagi undalma hurmat va iltifotni kuchaytirganligini ko'rishimiz mumkin.

-Bonucha, sizga baliq tutib beraymi? – deb ko'ylagini yechdi-yu, suvga sho'ng'idi. [1, 21]

Bonucha undalmasi erkalash, ya'ni Hamidabonuni erkalab chaqirish uchun ushbu satrda qo'llanilgan. Bu so'zlar Nizom, ya'ni Humoyun porshohning eshkak eshuvchi lavozimida ishlovchi hamda Hamidaning yoshlikdan birga suv bo'yida o'ynaydigan do'stiga tegishlidir.

-Xaloyiq, tinchlaning! Humoyun hazratlari Navro'z bayrami munosabati bilan fuqaroga xayr-u ehson qilmoqchilar! [1, 31]

Bu yerda xaloyiq undalmasi, aynan, butun xalqning e'tiborini qaratish uchun jarchi tomonidan aytilgan, undash ohangidagi satr. Voqea ham aynan Navro'z bayramida, Humoyun podshohning farmoniga binoan ehson berish orqali ushbu undalma qo'llanilganligini ko'rishimiz mumkin.

-Hazratim, Sherxon Chunorga hujum boshlabdir, qal'a ichidagilar qamalda qolmishlar. [1, 44]

Hazratim undalmasi Humoyun podshoga nisbatan hurmat yuzasidan doim ishlatilgan bo'lib, bu yerda Turdibek, podshohning eng yaqin odamlaridan biri hamda juda badavlat amaldor ham ishlatgan. O'sha davrdagi shavqatsiz va ayyor podshoh Sherxon Hindistonni butunlay bosib olish uchun boshlagan ilk harakati ham Chunor viloyatini qamal qilish edi.

-Yo'q, sherqiz, siz hali o'zingizni bilmaysiz. [1, 63]

Bu yerda sherqiz, ya'ni Hamidabonuga Xonzodabegim tomonidan berilgan ta'rif undalma vazifasida kelyapti. Sherqiz so'zi –sherday qo'rmas, juda jasur qiz –degan ma'noni anglatadi. Aynan, bu yerda Hamidaning

chavandozligi haqida gap ketmoqda. Asarda esa Xonzodabegim Humoyun podshohga Hamidani kelin qilib olib berish maqsadida, chavandozlik musobaqasini uyishtirib, Hamidani ko'ndirmoqchiligini ko'rishimiz mumkin.

-Matvey! – dedi va temir panjara orqali qo'l cho'zdi: - Kalitin! Men sizni yurtigingizga qaytib ketgansiz, deb eshitgan edim-ku![1, 113]

Matvey, Kalitin ismlari satrda undalma vazifasida kelyapti. Ular Hindistonga kelgan elchilardir. Bu yerda esa Humoyun ularni zindonda behosdan ko'rib, hayratda qoladi va ular fitna qurboniga aylanganini tushinadi.

-Farzandni xudo bergay, o'g'lim, lekin tangrim uni ota-onaning muhabbatidan yaratgay,[1, 141]

Z. M. Bobur bu yerda o'z o'g'li Humoyunga o'g'lim deya murojaat etayotganligini ko'rishimiz mumkin va bu ham undalma sanaladi. Bu nasihat Humoyun o'ttizga kirganda ham bolasi yo'qligi sababli to'g'ri yo'l ko'rsatish uchun aytilgan. Shundan keyin esa Humoyun Akbar ismli bola ko'radi.

-Ruxsat emas, iltimos sizdan, Mohim! –dedi.[1, 160]

Bu yerda Mohim ismi ham undalmani ifodalagan. Asarda Humoyun podshoh Hamidadan Akbar ismli o'g'il ko'radi. Akbar juda ko'p sut ichgani uchun dastlab, uni Mohim ovqatlantiradi, chunki Hamidaning bunga kuchi yetmaydi. Shuning uchun ham Mohim enagadan iltimos qiladi.

-Noumid shayton, Hamidabonu![1, 165]

Hamidabonu ismi ham undalma vazifasini bajarmoqda. "Jangda mag'lub bo'lgan Humoyun Eron shohi Taxmasp saroyidan panoh topdi. Hindiston taxtini afg'onlarning sur qabilasi sardori Sherxon egallab oldi." [4, 74]. Ayni shu damda Humoyun rafiqasi Hamidabonuga dalda beradigan yagona inson edi.

-E, atala polvon, nechun yig'laysen?[1, 232]

Atala polvon undalmasi Humoyun podshohning o'gay ukasi Kamronning o'g'li Jahongir mirzoga qarata aytilmoqda. U kichkinaligida Akbar bilan kurash tushadi va mag'lub bo'lgani hamda nog'orasini yutqazgani uchun yig'laydi va buni ko'rgan otasi uni koyiydi.

-Akbarjon, o'g'lim! Seni xavf-xatarlar girdobida qoldirganim uchun kechir![1, 247]

Bu yerdagi undalma Akbarjon, o'g'lim! Bo'lib, Humoyun podshohning to'g'ich o'g'li hisoblanadi. Humoyun o'z o'g'lidan kechirim so'rashining sababi, Sherxondan keyingi dushmani, o'gay ukasi Kamronning qal'asini buzib oilasini qutqarish uchun toshli to'plarni otgan. Kamron esa Akbarni o'rtaga chiqarib nishon qilgan, uning ko'z oldida to'plar yog'ilgan, buni ko'rgan Humoyun darhol to'pchilarni to'xtatib, qal'aga to'psiz hujum qilgan

edi. Keyinchalik, Akbar asabiylashganida doimo shu voqeani eslab, jig'ibiyron bo'lib ketadigan bo'lib qoladi

-Rost, miyon Abdulla, -dedi Salim ota Humoyunga yaqin boshdan kechirgan falokatlarini eslab...[1, 287]

"Miyon-domla, mavlono deganga o'xshash so'z. Fozil kishiga nisbatan ishlatiladi." [1, 287]. Bu yerda undalma miyon Abdulla sanaladi. Bu satrdagi ma'no shundan iboratki, Sherxon Hindistonda podshoh bo'lgan paytda saltanatning Humoyunga sodiq kishilari qo'zg'olon ko'tarmoqchi bo'lishadi va mahfiy ravishda uchrashib, suhbatlashishadi.

-Hazrat otajon, inoning! Men sizga va bobokalonimizning vasiyatlariga to o'lgunimcha sodiq qolurmen! [1, 300]

Hazrat otajon ham undalma va Akbar tomonidan o'lim to'shagida yotgan otasi, ya'ni Humoyunga qarata aytilgan bo'lib, aynan, bobokalonlari Sohibqiron Amir Temurning mashhur so'zlari o'yib yozilgan "Kuch – birlikdadir" qilichini olayotgan paytida otasiga va bobosiga shu so'zlar orqali qasamyod qiladi.

-Xonbobo, durustroq bir joydan qarorgohga o'rin tanlaylik. [1, 313]

Ushbu Xonbobo undalmasi asardagi qahramon Bayramxonga aytilgan bo'lib, bu so'zni Akbar ismini aytishga qiynalib, yoshligidan shu nom bilan aytib yurgan. Otasi Humoyun vafot etgach, davlat ishlarida Akbarga Bayramxon, ya'ni otasidek ardoqlaydigan amaldor yordam beradi.

-Janob beklar, kimki otalig'imizning sha'niga yomon so'z aytsa, bizga qarshi chiqqan kabi jazolanur. [1, 318]

Bu yerda janob beklar undalma hisoblanadi va asarda Akbar o'z a'yonlariga otalig'i, ya'ni Bayramxonni kamsitish, davlatni kamsitish degan ma'noda so'zlaydi. Bir tarafdin Bayramxon ham podshohdek ulug'lanadi.

-Onajon, o'sha binoni biz qurdirsak-chi? Otamning xotiralariga munosib ulkan maqbara. [1, 323]

Onajon undalmasi Hamidabonu, ya'ni Akbar o'z onasiga qarata aytgan. Otasi Humoyun vafot etgandan keyin Hindistondagi eng yirik maqbarani qurdirish uchun suhbatlashadi.

-Janob me'mor, siz avval maqbaraning tarhini chizing, -dedi Akbar. [1, 325]

Satrdagi "Tarh-chizma lavha: loyiha, reja" [3, 117] degan ma'noni anglatadi. O'sha davrning mahhur me'morlaridan biri mirzo Mirak Humoyun maqbarasining tarhini chizadi va maqbara shu asosida bunyod etiladi.

-Otalig' janoblari, -dedi Hamida begim, - bu qurilishi bir yilda bitmagay... [1, 326]

“O'taliq-katta davlat mansabi hamda taqsimlab berilgan shahzodalarga ma'sul, nazoratchi, rahnamo va bundan tashqari, otasining o'rnini bosuvchi degan ma'nolarni anglatadi.”[5, 28]. Akbarning otalig'i Bayramxon o'sha davrda xazinabon etib ta'yinlangan, shu bilan birga Humoyunning maqbara qurilishiga mablag' ham ajratgan.

-Damurod, to'xta, Damurod! – deb, filga iliq gapirdi.[1, 334]

O'sha davrda Hindistonda fil janglari juda ommalashgan bo'lib, shoh Akbar ham bu janglarda ishtirok etgan va doim g'alaba qozongan. Damurod undalmasi uning eng sevimli va xavfli filiga qo'yilgan nom.

Akbar esa filbondan minnatdor bo'lib: -Tasanno, Bhishan! –derdi.[1, 352]

Bhishan undalmasi podshoh fillariga ma'sul odamning ismi bo'lib, “Bobur Hindistonni egallash uchun yurish boshlaydi. Bu davrda Shimoliy Hindistondagi Dehli sultonligida afg'onlarning lo'diylar sulolasidan bo'lgan Ibrohim Lo'di hukmronlik qilar edi va u 1526-yil 21-aprelda Bobur qo'shiniga qarshi Panipat jangida mag'lub bo'lib, halok bo'ldi.” [4, 74]. Bu jangda qatnashgan hamda Boburga yordam bergan filbon La'l Chandning o'g'li. Asarda esa Akbar va Bayramxon o'rtasida ziddiyat paydo bo'ladi va ular fillar jangini uyushtiradi, buning asl ma'nosi esa kim kuchliligini aniqlash edi. Jangda Akbarning filboni Bhishan va sevimli fili Namudor g'alaba qozonadi. Bu voqeadan keyin esa Bayramxonning mavqei tushib boradi.

Hozir Akbar Xisravga Namudorni taqdim qilar ekan:

-Nevaralarim, sizlar ham shu filday qudratli, filday bardoshli bo'linglar! – dedi.[1, 628]

Tahlil qilishdan oldin Akbarning eng sevimli nevarasi va mashhur podshohga to'xtalsak. Xisrav taxtga o'tirgandan keyin o'zini Shoh jahon deb tanitadi hamda “Jahon me'morchilik san'atining noyob durdonalaridan biri Tojmahal mavzoleyidir. Uni Shoh jahon o'zining sevimli xotini Mumtoz Mahalga bag'ishlab qurdiradi”[4, 78]. Ushbu satr orqali Akbarning o'z nabiralari uning sevimli fillaridan biri Namudordek qudratli, kuchli va bardoshli bo'lishini vasiyat qilayotganini ko'rishimiz mumkin.

So'ng so'z o'rnida shuni aytish mumkinki, Pirmqul Qodirov jahon va o'zbek adabiyotida o'zining nafaqat badiiy, balki tarixiy asarlari orqali iz qoldirgan mashhur yozuvchidir. Asardagi o'ndan ortiq undalmalarning qo'llanilishi ham yozuvchi uslubini ochib beradi. Har bir qo'llanilgan undalma nasihat, e'tiborni qaratish, erkalab chaqirish, buyruq berish, yupatish va shu kabi bir qancha ma'nolarni anglatadi hamda asarda aniqlik oshirganligini ko'rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Qodirov P. Avlodlar dovoni. –Toshkent: “Im-ziyo-zakovat”. 2020. –B. 16, 21, 31, 44, 63, 113, 141, 160, 165, 232, 247, 287, 300, 313, 318, 323, 325, 326, 334, 352, 628.
2. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –B. 354.
3. Qodirov M. Ona tili. -Toshkent: Cho'lpon nomidagi NMIU. 2019. –B. 116.
4. Farmonov R. Jahon tarixi. -Toshkent: Cho'lpon nomidagi NMIU. 2019. – B. 74, 78.
5. Jo'rayev O'. O'zbekiston tarixi. -Toshkent: “O'qituvchi” NMIU. 2019. – B. 116.